

Ishonch telefoni pasporti

Date : 2 Iyun, 2015

Sirdaryo viloyati hokimligida jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlarini yagona ishonch telefoni orqali qabul qilish

TARTIBI

1. Xizmatning ta'rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish.

1.2. Xizmat natijalari

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining yagona ishonch telefoni orqali kelib tushgan shikoyat, ariza va takliflarini qabul qilish va ko'rib chiqish.

1.3. Xizmat ko'rsatish organlari va blank olish joylari

Sirdaryo viloyati hokimligi.

Murojaatlar (ariza, taklif va shikoyat) alohida shaklga ega emas.

1.4. Huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 49-son, 578-modda) Qonuni.

Sirdaryo viloyati davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Nizom.

Sirdaryo viloyati hokimligining Reglamenti.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillari Sirdaryo viloyati hokimligiga murojaat qilish huquqiga ega.

Murojaat qilish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Hech kim biron-bir murojaatni himoya qilishga

yohud unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas.

Murojaat qilish huquqning amalga oshirilishi boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarini buzmasligi kerak.

Xorijiy davlatlarning jismoniy shaxslari va yuridik shaxslari vakillari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Sirdaryo viloyati hokimligiga O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 49-son, 578-modda) Qonunga muvofiq murojaat etish huquqiga ega.

1.6. So'rov berish muddati

Yakshanba kunidan tashqari har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha. Tushlik vaqti 13:00 dan 14:00 gacha.

1.7. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari

Ariza yoki shikoyat masalini mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallar so'rab olish yohud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddati istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif Sirdaryo viloyati hokimligiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

1.8. Murojaatlarni ko'rmay qoldirish

Quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

anonim murojaatlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;

qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

1.9. Tasdiq berish muddati

Murojaatlarni berish muddatlari, qoida tariqasida, beliglanmaydi.

II. Xizmatdan foydalanuvchini xabardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

Taqdim etilgan ma'lumotlar hamda murojaatlar tarkibi va hajmini e'tiborga olgan holda ko'rib chiqib belgilanadi.

2.2. Keng miqyosda xabardor qilish

Sirdaryo viloyati hokimligining rasmiy veb-sayti www.sirdaryo.uz da jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlarini yagona ishonch telefoni orqali qabul qilish va ko'rib chiqish hisoblagichi bo'limida e'lon qilinadi.

2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish

Yagona ishonch telefon orqali soat 9:00 dan 18:00 gacha (tushlik vaqti 13:00 dan 14:00 gacha) xizmatdan foydalanish bo'yicha har qanday katta hajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki maslahat (5 daqiqadan ortiq emas) olish.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Mustaqillik ko'chasi, 60 uy.

2.5. Foydalaniladigan hujjat blanklari (shakllar)

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillaridan yagona telefon orqali shikoyat, ariza va takliflar qabul qilinadi (ariza, taklif va shikoyat uchun alohida shakl mavjud emas).

III. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Yakshanba kuni tashqari har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha.

Tushlik vaqti 13:00 dan 14:00 gacha.

3.2. Kutish shartlari

Ushbu tartibning 1.7. bandida keltirilgan muddatlar talab etiladi.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Murojaatlarga qo'yiladigan talablar

Jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning telefon raqami, familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

(Eslatma: Jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar yoki yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yohud ular haqida yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilgan murojaatlar anonim murojaatlar deb hisoblanadi).

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Davlat xizmatini ko'rsatish bosqichlari va ichki idoraviy jarayonlar

Sirdaryo viloyati hokimligining rasmiy veb-sayti www.sirdaryo.uz ga kirib ariza, taklif qoldirish uchu yagona murojaatlar (0 367) 235 01 23 telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish lozim;

yagona murojaatlar telefoni orqali javob beruvchi ma'sul xodim tomonidan ariza, taklif va shikoyatlar ro'yxatga olinadi;

to'plangan murojaatlar shu kuni Sirdaryo viloyati hokimligining ma'sul rahbariga tanishish uchun kiritiladi;

Sirdaryo viloyati hokimligi ijro uchun boshqaruv ma'sul xodimlariga O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni asosida o'rganib chiqib, tegishli chora ko'rish uchun taqsimlanadi;

ariza, taklif va shikoyatlar o'rganilib, tegishli choralar qo'llanilgandan so'ng murojaat etuvchining xohishiga ko'ra yashash manziliga yozma shaklda yoki elektron pochta manzili orqali javob yetkaziladi.

4.5. Rad etish asoslari

Ushbu tartibning 4.1. bandida keltirilgan bandlar to'liq keltirilmagan holda;

yagon murojaatlar telefoni orqali javob beruvchi ma'sul xodimga va boshqa shaxslarga nisbatan haqoratli, tuhmat, beadab so'zlar bilan murojaat etilgan taqdirda;

bir xil mazmundagi noaniq murojaat qayta qayta kelganda;

murojaat o'rganib unga qaror chiqarilgan bo'lsa.

V. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati ko'rsatiladigan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga to'liq javob beradi.

5.2. Xizmat sifati ustidan shikoyat qilish tartibi

Sirdaryo viloyati hokimligi ma'sul xodimlari tomonidan sifatsiz ko'rsatilgan xizmat yoki xizmat ko'rsatish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'yicha Sirdaryo viloyati hokimligining rasmiy veb-sayti www.sirdaryo.uz dagi qayta aloqa shakli orqali shikoyat qilish mumkin.